

## DEHQONOBOD VA SHAHRISABZ SHEVALARINING ADABIY TILDAN FARQI, DEHQONOBOD SHEVALARIDA O'ZBEK FOLKLORI

*Maxmarejabova Ruxsora Otabek qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotation:** Ushbu maqolada Dehqonobod va Shahrisabz shevalarining leksik, grammatik, fonetik, morfologik xususiyatlari, ularning adabiy tildan farqli va yaqin tomonlari, Dehqonobod xalqining shevadagi xalq og'zaki ijodi yoritib berilgan.

**Annotation:** This article highlights the lexical, grammatical, phonetic, and morphological features of the Dehqanabad and Shahrisabz dialects, their similarities and differences from the literary language, and the oral folklore of the Dehqanabad people in the dialect.

**Аннотация:** В статье освещаются лексические, грамматические, фонетические и морфологические особенности Дехканабадского и Шахрисабзского диалектов, их сходства и отличия от литературного языка, а также устного народного творчества Дехканабадцев на диалекте.

**Kalit so'zlar:** Sheva, lahja, Dehqonobod, Shahrisabz, adabiy til, maqol, topishmoq, tezaytish.

**Key words:** Dialect, Dehqanabad, Shahrisabz, literary language, proverb, riddle, idiom.

**Ключевое слово:** Диалект, говор, Дехканабад, Шахрисабз, литературный язык, пословица, загадка, идиома.

Sheva – tilning fonetik, grammatik va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi – sezilarli lisoniy tafovutlari bo'limgan bir yoki bir necha aholi maskani yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanadi. Alovida shevalar birikib, lahjani tashkil etadi.

O‘zbek shevalarining o‘ziga xos leksik, grammatik, fonetik va morfologik xususiyatlari mavjud.

Dehqonobod va Shahrisabz shevalarining leksik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ikki hududda ikki xil, adabiy tilda esa umuman boshqacha nomlanadigan so‘zlar ko‘p uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, tozalash uchun shuvoq, makkasupurgi va shu kabilardan dastalab bog‘lab yasaladigan uy-ro‘zg‘or buyumini quyidagi jadval asosida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

Adabiy til	Dehqonobod	Shahrisabz
Supurgi	Shibirtki	Shipirgi

Yoki oddiygina uy-ro‘zg‘or buyumlarini ham shevalarda talqin qiladigan bo‘lsak, turli chalkashliklar yuzaga keladi. Jadvalga e’tibor bering:

Buyumlar	Adabiy til	Dehqonobod	Shahrisabz
Kir yuviladigan idish	Tog‘ora	Tog‘ara	Lagan
Xamir qilinadigan idish	Tovoq	Tobaq	Tog‘ora
Osh suziladigan idish	Lagan	La’li	Tovoq

Yana o‘rgimchakning to‘rini Shahrisabz aholisi tartanak, Dehqonobod aholisi esa chotir deyishadi. Shahrisabzliliklar buvini katta, Dehqonobodliklar esa moma deyishadi. Adabiy tildagi pochcha so‘zini Dehqonobod aholisi jezda deydilar.

Shahrisabz hududi qarluq lahjasiga mansub bo‘lgani sababli so‘zлari adabiy tilga yaqin. Lekin Dehqonobod aholisi qipchoq lahjasiga mansub bo‘lgani tufayli ba’zi so‘zлari adabiy tildan butunlay yiroq holda talaffuz etiladi. Masalan, yolg‘on so‘zini vo‘tirik, g‘iybatni vo‘sak, eshakning bolasi, ya’ni ho‘tikni kurra, eshakning ustiga yopiladigan to‘qimni jobuv, siyohrangni chirnel, pushtini gulobi, yashilni esa pistaqi deb aytishadi. Masalan, adabiy tilda “Suvingdan bir ichay”, deydigan bo‘lsak, Dehqonobodda “Suvingdan bir o‘rtlay” deb so‘rashadi. Yoki “Eshikni yop!” deydigan bo‘lsak, ular “Yeshikti qushur” deb aytishadi.

Shevalarning grammatik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘zlarni bir-biriga bog‘lashda ham o‘zgarishlar uchraydi. Masalan, qaratqich kelishigining -ning qo‘srimchasini oladigan bo‘lsak, Shahrисabzda -ni tarzida, Dehqонobodda esa -ding, -ting tarzida qo‘llanadi. Misol uchun, Akamning mashinasi – adabiy tilda, akamni mashinasi - Shahrисabzliklar shevasida, akamding moshini, yeshikting ushlagichi - Dehqонobodliklar shevasida. Tushum kelishigining -ni qo‘srimchasini Shahrисabzda ham, Dehqонobodda ham -di tarzida talaffuz etiladi. Ba’zan -ti holida ham ishlatishini kuzatamiz. “Dasturxонни yoz” adabiy tilda bo‘lsa, shevalarda, Shahrисabzda “Dasturxонди yoz”, Dehqонobodda esa “Dostorxонди joy” deb aytiladi. -ga jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi Dehqонobod shevalarida -g‘a tarzida talaffuz etiladi. “Tog‘га chiqamiz”ni Shahrисabzda “Toqqa chiqamiz” desa, Dehqонobodda “Tovg‘а chiqamiz” deydilar.

-dan chiqish kelishigi qo‘srimchasini qipchoq shevasida -nan tarzida talaffuz etiladi. “Akamdan so‘radim” emas, “Akamnan so‘radim” tarzida.

Morfologik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, qo‘srimcha qo‘sish bilan bog‘liq o‘zgarishlar uchraydi. Boryapman fe’lini Shahrисabzliklar boromman, Dehqонobodliklar esa boryappan deb talaffuz qiladilar. Borar edim fe’lini esa Shahrисabzda boraychiydim, Dehqонobodda esa borg‘ichedim deb aytadilar.

-mi so‘roq yuklamasini Dehqонobodda -ma tarzida ishlatadilar, bu qo‘srimcha aslida adabiy tilda bo‘lishsizlik qo‘srimchasi hisoblanadi. Keldingmi? Bordingmi? so‘zlarini Keldingma? Bordingma? deya aytadilar. U, shu kabi olmoshlarni vo‘, sho‘ tarzida, shunday qilib so‘zini sho‘ytib, bunday qilib so‘zini esa biytib holida talaffuz etadilar.

Fonetik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tsak, Shahrисabzliklarda r harfini tashlab ketish yoki undan keyin kelgan harf bilan biriktirib ketish holatlarini uchratamiz. Masalan, Bolalar so‘zini bolla, akamlar – akamla, narsa – nassa, berdim – beddim, charchadim – chachchadim shu kabi o‘zgarishlar ko‘pgina so‘zlarda uchraydi.

Dehqонobod aholisi esa unli so‘zlar oldidan harflar qo‘shib, tovushlar o‘rnini almashtirib, y o‘rniga j tovushini qo‘llab, jarangli o‘rniga jarangsiz, yoki jarangsiz

o‘rniga jarangli undoshlarni qo‘llab gapiradilar. Uzum, uzuk, ilon, ip so‘zlarini juzum, juzuk, jilon, jip, o‘rdak, o‘sma so‘zlarini vo‘rdak, vo‘sma, eshik, elak so‘zlarini yeshik, yelak tarzida aytishini so‘zlar oldidan harflar qo‘shib aytishiga misol qilib ko‘rsata olamiz. Charos, zamon kabi so‘zlarni Choras, zoman tarzida talaffuz etishida a va o tovushlarining o‘rin almashib qolganini kuzatamiz.

Yetti, yo‘q, yara kabi so‘zlarni jeti, jo‘q, jora holida aytishidan Dehqonobodliklarning “j”lovchilar vakillari ekanligini bilishimiz mumkin.

Yo‘qol so‘zini jo‘g‘al, gapi bor so‘zini gabibor, afg‘on so‘zini ovg‘on tarzida talaffuz etishidan jarangsiz undoshni jarangli holda, ketdi, aytdi kabi so‘zlarni ketti, oytti, tuzsizni tussiz, kitobni kitop tarzida talaffuz qilinishini esa jarangli undosh o‘rniga jarangsiz qo‘llashga misol qilib o‘ta olamiz. Shunday hollar ham uchraydiki, ba’zan bir jarangsiz o‘rnida boshqa bir jarangsiz, bir jarangli o‘rnida esa boshqa bir jarangli kelishini ham uchratamiz. Tovoq – toboq, somon – sobon, novvot – nobot, tovon – tobon so‘zlarida bir jarangli o‘rnida boshqa bir jarangli tovush talaffuz etilgan. Fotima – Potma, Sharofat – Shorapat kabi so‘zlarda esa bir jarangsiz o‘rnidan boshqa bir jarangsiz qo‘llanilgan.

Dehqonobod xalqi o‘zbek folklorida ham o‘ziga xosdir. Ularning o‘ziga xos maqol, topishmoq, tezaytish, ibora, qarg‘ish va olqishlari ham tahsinga sazovordir. “Pishak tekinga optopga chiqmas”, “Juzumini je-da, bog‘ini so‘rama”, “Yaxshi kelin shibirtkisi hashak ostida jotor, Jomon kelin shibirtkisi oyoq ostida jotor” kabi o‘ziga xos maqollarni uchratamiz. “Jona jerda jorti kapa” bu yerda yonbosh yerda yarimta o‘tov ma’nosidagi topishmoqni ham uchratamiz. Topishmoqning javobi – quloq. Yuzning yonboshi jona jer, quloqning joylashuvi esa o‘ziga xos tarzda jorti kapa, ya’ni yarim o‘tovga o‘xhatilib, juda chiroyli topishmoq holiga kelgan. “Vo‘zingda bor, yesingda jo‘q” topishmog‘i ham Dehqonobod xalqi tomonidan o‘ylab topilgan. Topishmog‘imizning javobi biz rostdan ham nomini bilmaydigan a’zoyimiz, ya’ni burun bilan o‘g‘izning o‘rtasi hisoblanadi. Nomini bilmaganimiz uchun o‘zimizda bor-u, esimizda yo‘q deya ta’rif beriladi.

“Jo‘ja jerda jumalab joitipti”, “Toshtemir tog‘amding traktiri Tyanshan tovining tagidagi to‘xsan tonna temirdi tortalmay tirillab turipti” kabi o‘ziga xos tezaytishlarni ham uchratishimiz mumkin.

“Hovadan qochib, qorg‘a tutilmoq”, “Xomirdan qil suvurg‘anday”, “Jov tomsa jolag‘iday”, “Jilanding jovini jolag‘an” kabi iboralar ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Qarg‘ish gaplaridan “Uyganang qizig‘ir”, “Ko‘zing kallangnan qog‘ir”, “Kallangdi pit jegir”, “Jag‘inga yeshak tepkir” kabilarni uchratamiz. Shunday bo‘lgani bilan Dehqonobod xalqining duo va olqishlari ham juda o‘ziga xosdir.

“Qulhuvalloh qo‘rg‘oni bo‘sin, Alhamdulillah jo‘ldoshi bo‘sin, Jurgan jo‘li oq bo‘sin, Jo‘ldoshlari haq bo‘sin, Oldirsin, oshirmasin, To‘ldirsin, toshirmasin, Vo‘mriga, nasliga Xudo baraka bersin, Nebara-chubaralarining baxtini ko‘rib jursin” deya qilinadigan duolari bilan ham mashhurdir. “Bolang ko‘baygir”, “Ota-yenanga ming rahmat”, “Yaxshiga jondoshtirsin, jomondan odashtirsin” kabi olqishlarini uchratamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samixon Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –T. 2011.
2. Nasriddin Nazarov. Laqaylar: dialektologiya va frazeologiya. –T. 2010.
3. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1978.
4. Nazar Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. Toshkent, “O‘qituvchi” 1996.